



NARPAY TUMANINI QANDAY RIVOJLANTIRISH MUMKIN?

Fayzullayeva Dilorom Sanjarbek qizi

Samarqand Davlat Chet Tillari institute

Narpay Xorijiy tillar fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti (Ingliz tili)yo'nalishi

2-kurs 2301-guruh talabasi

Sadinov Ma'ruf

Ilmiy rahbar:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15396187>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-May 2025 yil

Ma'qullandi: 10-May 2025 yil

Nashr qilindi: 13-May 2025 yil

KEYWORDS

Taraqqiyot, Rivojlanish, Oliy
ta'lim, Ta'lim va
Madaniyat, Tumanimizda olib
borilayotgan islohotlar..

ABSTRACT

Ushbu maqolada tumanimizni rivojlantirish to'g'risidagi sa'y harakatlar va bu yo'lda e'tibor berilishi kerak bo'lgan turli jabhalarda haqida bir qancha takliflar berilgan. Hamda har qanday hududni va aholini rivojlantirish uchun ta'lim sohasi asosiy o'rinda turishi, bundan tashqari Narpay tumanida ta'limni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan islohotlar haqida so'z boradi.

TUMANIMIZNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Har qanday hududning rivojlanishi bir nechta muhim yo'nalishlarning uyg'un ishlashiga bog'liqdir. Barcha jabhalarni qamrab olgan kompleks rivojlanish dasturlari nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki aholi turmush darajasini ham yaxshilaydi. Quyida tumanimizda e'tibor qaratilayotgan hamda rivojlantirilishi kerak bo'lgan eng muhim sohalarni batafsil yoritib beraman.

1. Iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash: Mahalliy tadbirkorlikni rag'batlantirish yosh tadbirkorlar uchun o'quv dasturlari tashkil qilish bank va moliya institutlari orqali kredit va subsidiyalar ajratish. Kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash. Xorijiy investorlar uchun imtiyozlar joriy qilish.

Ish o'rinlarini yaratish: Yangi zavod va fabrikalarni qurish. Hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish. Ayollar va yoshlar uchun bandlik dasturlarini kengaytirish.

2. Infratuzilmani rivojlantirish: Hududning taraqqiyoti uchun zamonaviy infratuzilma muhim ahamiyat kasb etadi. Yo'llarni ta'mirlash va transport tizimini yaxshilash: Jamoat transportini modernizatsiya qilish va yo'lovchilar uchun qulay tizim yaratish. Elektr transport vositalarini joriy qilish.

Kommunal xizmatlarni rivojlantirish: Ichimlik suvi tizimini yangilash. Elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish sifatini oshirish. Internet va aloqa infratuzilmasini takomillashtirish.

Dam olish va yashash sharoitlarini yaxshilash: Yangi bog' va istirohat maskanlari barpo etish. Sport majmualari va bolalar o'yin maydonchalarini qurish. Zamonaviy savdo va madaniyat markazlarini tashkil etish.

3. Ta'lim va madaniyatni rivojlantirish: Yosh avlodning bilimli va madaniyatli bo'lishi tumanimizning kelajakdagi rivoji uchun muhim omil hisoblanadi. Yaqin yillarda tumanimizda

ta'lim sohada ko'zga ko'rinarli islohotlar olib borilmoqda. Misol uchun: Maktab va maktabgacha ta'lim tizimi takomillashtirilmoqda. Yangi maktablar va bog'chalar qurilish, mavjudlarini ta'mirlash ishlari boshlangan. Boshlang'ich va o'rta ta'lim sifatini oshirish uchun zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etilmoqda. Ammo qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak yanayam sarmoya qilinishi kerak bo'lgan ishlar ham yo'q emas. Bunga misol qilib: Darslik va o'quv qo'llanmalarni yangilash, raqamli ta'lim resurslarini yaratish. IT va texnologik ta'limni rivojlantirish. Har bir maktabda kompyuter sinflarini tashkil qilish. O'quvchilarga dasturlash, robototexnika va sun'iy intellekt asoslarini o'rgatish. Onlayn ta'lim platformalarini joriy qilish va o'quvchilarga masofaviy ta'lim olish imkoniyatini yaratish.

Oliy ta'lim ham har bir jamiyatning taraqqiyotini belgilovchi muhim sohalardan biri hisoblanadi. Ilm-fan, texnologiya va iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan oliy ta'lim tizimi malakali kadrlar tayyorlash, innovatsion fikrlashni shakllantirish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda oliy ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Bu islohotlarning asosiy maqsadi – ta'lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga mos tizim yaratish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishdir. Bunga yaqqol misol qilib tumanimizda shaxsan Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev Miromonovich tashabbusi bilan 2021-o'quv yilida tashkil etilgan Samarqand Davlat Chet Tillar Institutining Narpay Xorijiy tillar fakultetini aytsak bo'ladi. Bu fakultet nafaqat bizning tumanda, balki Payariq tumanida ham tashkil etildi. Bu nafaqat Narpay tumanida balki qo'shni tumanlarda istiqomat qiladigan yoshlar va ularning ota onalari uchun har tomonama imkoniyatlar eshigini ochdi desak adashmagan bo'lamiz. Shuningdek, bu tumanning rivojlanishi hamda shaharlashishi uchun turtki bo'la oldi. Vaholangki, boshqa viloyatlar hamda tumanlardan kelgan talabalar tuman aholisining globallashuviga va aholining o'qishga bo'lgan shijoatini yanada oshirishga katta ta'sir o'tkazmoqda.

Bundan tashqari Oliy ta'lim muassasalari o'z oldiga zamonaviy fanlarni o'qitish va ilmiy tadqiqotlar uchun sharoit yaratish, xorijiy universitetlar bilan hamkorlik o'rnatish va talabalar uchun xalqaro almashinuv dasturlarini joriy qilish kabi o'zgarishlarni maqsad qilib qo'ygan.

Boshqa tomondan qaraydigan bo'lsak, madaniyatni rivojlantirish ham tumanimiz rivojlanishining bir omili desak ham bo'ladi. Hozirgi kunda esa kutubxonalar va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, zamonaviy kutubxonalar qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, elektron kutubxonalar va audiokitob platformalarini yaratish, aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish uchun tadbirlar o'tkazish kabi islohotlar katta ahamiyat kasb etmoqda.

Faqat kitobxonlik emas, balki san'at va ijodkorlik sohaslarida ham ko'rinarli o'zgarishlar tumanimiz rivojiga rivoj qo'shmoqda. Misol uchun, har yili tuman darajasida milliy va xalqaro festivallar o'tkazish, musiqa, rasm chizish, haykaltaroshlik va aktyorlik mahorati bo'yicha to'garaklar tashkil etish, mahalliy san'atkorlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ijodini keng targ'ib qilish. Shuningdek, teatr va kinoteatrlarda milliy va xorijiy spektakllar, filmlar namoyishini yo'lga qo'yish, madaniyat markazlari va tadbirlar tashkil etish, yoshlar uchun madaniyat markazlarini tashkil etish va ularga bepul foydalanish imkoniyatini yaratish kabi o'zgarishlarga ham yetarlicha etibor berish tumanimizda yanayam san'at va madaniyat sohasiga bo'lgan qiziqishni oshiradi deb o'ylayman.

4. Sport va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish:Har bir mahallada sport zallari va ochiq havoda mashg'ulot maydonchalarini tashkil qilish,bolalar va yoshlar o'rtasida sport musobaqalari o'tkazish,sport murabbiylarini tayyorlash va sport inshootlarini zamonaviy jihozlash kabi islohotlar tumanimizda sportga bo'lgan shijoatni oshirishga yordam beradi,albatta.

5. Mahalliy tashabbuslar va innovatsion loyihalar ham tumanimiz rivojlanishi yo'lida yetarlicha hissa qo'shadi.Misol qilib aytadiga bo'lsak:Ta'lim va madaniyat sohasidagi eng yaxshi loyihalarni rag'batlantirish,mahalliy san'atkorlar, yozuvchilar va olimlarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish,aholi uchun bepul ma'naviy-ma'rifiy dasturlar va treninglar tashkil etish kabi tadbirlar tumandoshlarimizning shaxsiy rivojlanishi uchun turtki bo'la oladi desak adashmagan bo'lamiz.

6. Ekologik muhofaza va yashil energiya:Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash har qanday hudud uchun dolzarb masala. Atrof-muhitni himoya qilish:Hududdagi chiqindi tashlash tizimini yaxshilash va qayta ishlash zavodlarini qurish,ekologik nazorat va monitoringni kuchaytirish,suv resurslarini tejash va toza ichimlik suvi manbalarini himoya qilish kabi chora tadbirlarga katta etibor qaratilishi ham maqsadga muvofiqdir.

7. Turizmni rivojlantirish:Hududning turistik salohiyatini oshirish iqtisodiy o'sish va ish o'rinlari yaratishda muhim rol o'ynaydi.Mahalliy diqqatga sazovor joylarni rivojlantirishni tumanimiz mas'ullari o'z oldiga maqsad qilib qo'yishgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tumanni har tomonlama rivojlantirish uchun iqtisodiy taraqqiyot, zamonaviy infratuzilma, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ekologik muammolarni hal qilish va ijtimoiy sohalarni yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ta'lim tizimining rivojlanishi tumanning kelajagi uchun asosiy omillardan biridir. Zamonaviy maktablar, kasb-hunar markazlari va oliy ta'lim muassasalarining faoliyati kuchaytirilsa, malakali kadrlar yetishib chiqadi va bu hududning iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyotiga xizmat qiladi.Shuningdek, yoshlarni zamonaviy bilim va kasblarga yo'naltirish, o'qituvchilar malakasini oshirish va raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali tumanning jadal rivojlanishiga erishish mumkin. Har bir fuqaroning faolligi va bilimga intilishi tumanning yanada farovon va barqaror bo'lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.<https://narpay.uz>
- 2.<https://davaktiv.uz>
- 3.<https://oliygoh.uz>